

**AMARANTUS HYBRIDUSNING MORFOLOGIK
KO'RSATKICHLARIGA O'G'IT ME'YORLARINING TA'SIRI**

samdu magistranti

Ulug'murodova Yulduz Abdulxoshimova

PROF

Sanaqulov Akmal Lapasovich

Dots

Avutxonov Burxon Sobirovich

Keyingi yillarda amarant o'simligi dunyo hamjamiyati olimlari hamda hukumat doirasida tomonidan katta e'tibor bilan qaralayotgan XXI- asrning istiqbolli o'simliklaridan biri hisoblanadi. Jumladan, AQSh ning barcha shtatlarida, Xitoy, Hindiston va avstraliyada amaliyotga keng joriy etilgan o'simlik hisoblanadi. AQSh da esa amarant amerika instituti bilan hamkorlikda 23 ta ilmiy tadqiqot instituti shug'ullanib kelayotgan bo'lsa, Kanadada amarant oziq-ovqat sanoatiga joriy etilgan. AQSh va Rossiya Fedyeratsiyasida ushbu o'simlikni o'rganish va ular asosidagi mahsulotlarni amaliyotga keng joriy etish bo'yicha mahsus davlat dasturlari ishlab chiqilgan. Ushbu dasturlar asosida birgina AQSh ning o'zida amarant mahsulotlari asosida 300 dan ortiq nomdagi mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda. Jumladan amarant kosmetologiya va farmatsevtikada keng qo'llanilib, amerika farmokopeya o'simliklari tarkibiga kiritilgan.

Amarantni rivojlanishida qaysi o'g'itlar ta'siri yuqori bo'lishini kuzatdim ulardan qancha miqdorda qachon berish kerkaligini adabiyotlarga tayangan holda ishladim. Amarant urug'lari juda kichkina va qalin po'st bilan qoplanganligi uning unib chiqishini kechiktiradi va unib chiqquncha yetarlicha namlikni talab qiladigan o'simliklar qatoriga kiradi.

Amarantning A.hybridus turi bilan olib borilgan izlanishlar natijasi quyidagilardan iborat.

Nazorat turi	Poyasining uzunligi (sm)	Burglar soni (ta)	Rovaklar uzunligi (sm)	Urug' hosildorligi (s/ ga)
Nazoratsiz(o'g'itsiz)	191	117	90	20.9
P100 K75+Fon	227	125	112	25.1
Fon+N100	230	125	115	28.2
Fon+N150	233	131	119	29.4

Fon+N200	245	137	127	31.25
----------	-----	-----	-----	-------

Bu jadvaldagi sonlar olingan tajribadagi eng yuqori ko'rsatkichlarga asoslangan . Tajribamiz Samarqand Viloyati Payariq tumani sug'oriladigan yer maydonida olib borildi , tajriba qo'yishdan oldin ishni yerni yaxshilab melorativ tayyorlash , ishlov berishdan boshlandi. Kuzda yaxshilab ag'darilgan yerga Aprel oyning 10- sanasida qatorlar oralig'ini 70sm qilib oldim va urug'larni sepma usulidan foydalanib qatorlarga sepdim , gektariga 1,5-2 kg urug' sarfladim. Har oyning 10 sanasida ya'ni 1-dekadasida biometrik olchamlarni qayd etib bordim. Yerga ekilgan dastlabki haftalarda o'sishi sekinroq bo'ladi poyalar 20-25smdan oshgandan keyin tez o'sa boshladi. Har bir metrda 25-30ta ko'chatlar bo'lishi kelgusidagi olinadigan urug'lar hosildorligi uchun yaxshi natijalarga olib keladi. Amarant qurg'oqchilik va sho'rga chidamli. Ayniqsa vegetatsiya davrining ikkinchi yarmida. Oziq moddalariga boy o'rta mexanik tarkibli tuproqlarda yaxshi o'sadi. Namlik o'ta yuqori tuproqlarda yaxshi o'smaydi. O'zbekiston sharoitida asosiy, takroriy va siderat ekin sifatida etishtirish mumkin, vegetatsiyasi 90 kun davom etadi. 20-avgutdan boshlab ro'vaklar qo'l kuchi yordamida yig'ishtirilib olindi. Urug'larni ekishda shudgorlash davrida birinchi o'gitlar berildi .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Saidganiyeva Shahodat[Amarant o'simligining xalq xo'jaliagidagi ahamiyati va uning zararli entomofaunasi]. 2022.24-iyul. <https://zenodo.org/record/6896618>
2. Ulug'murodova Yulduz Abdulkxoshimovna Samarqand viloyati sharoitida *Amaranthus hybridus*ning ayrim biologik va fiziologik xususiyatlari [Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.] 2023